

Ulug' mutafakkir ijodi haqida Abdurahmon Jomiy ham shunday fikrlar bayon qilgan: "Ey (Navoiy), sening ta'bing so'z ustodidur. Qalaming ochqichi bilan so'z eshigini ochding. Ravnaqdan qolib ketgan va xorlik burchagidan o'r'in olgan (turkiy) so'zga sen yangidan obro' berding. Uni ijod maydoniga olib chiqding. U sening raying nuridan safoli bo'ldi, lutfing navosidan navoli bo'ldi".

Shoirning turkiy til ravnaqini yuksaltirishdagi harakatlari haqida Maqsud Shayxzoda shunday yozadi: "Navoiy, haqiqatan ham, o'zbek adabiy tilining va o'zbek adabiyotining mustahkam poydevorini qurgan, dohiy adib xususiyatlarini o'zida jamlab olgan bir siymo edi. Fors-tojik klassik adabiyotida bir guruh ulug' shoirlar bajarib ketgan vazifani tarix deyarli yakka Navoiy zimmasiga yukladi. U bu yukni sharaf bilan ko'tarib, manzilgacha yetkazgan mutafakkir edi".

"Xamsa" mumtoz adabiy an'analarga ko'ra yaratilgan bo'lса-da, o'ziga xos yangi asardir. Navoiy har bir dostonning g'oyasini o'z davri ijtimoiy-siyosiy talabalaridan kelib chiqib belgilagan. "Xamsa" dostonlarining g'oyasi adolatni himoya qilish, kishilarda odamilik hissini uyg'otishga intilish edi. Navoiy o'zining inson-parvarlik g'oyasidan kelib chiqib, "Xamsa" dostonlarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Shopur kabi o'nlab adolat, ma'rifat, ezzulik, insoniylik, baxt-saodat, do'stlik, ishq, vafo uchun faol kurashuvchi, zulm va

adolatsizlikning barcha ko'rinishlariga qarshi jang qilgan mard va qahramon, pokniyat va oqko'ngil, xalqparvar insonlarning yorqin obrazlarini yaratdi. Farhod haqida shoir shunday deydi:

Birovkim yig'lab, yig'lab ul zor'
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.
Bo'lib el anduhidin ko'ngli g'amnok,
Yaqo choking ko'rub, ko'ksin qilib chok.

Navoiyning bizga qoldirgan buyuk merosi jahon xalqlari e'tirofiga sazovor bo'lib, ko'plab tillarga tarjima qilingan. O'lmas asarlari bugungi kunga qadar chuqur o'rganib kelinmoqda.

Hozirda mutafakkirning nurli siymosi aks etgan haykallari yurtimizning Navoiy, Samarcand, Toshkent kabi shaharlarida, jahonning Tokio, Boku, Moskva, Washington singari dunyoga mashhur shaharlarida qad rostlab turibdi. Bu esa, Navoiy dahosi bilan yaratilgan asarlar yer yuzining turli nuqtalarida keng o'rganilayotganidan dalolatdir. Zero, shoir aytganidek:

*Har bir kalla, har bir bosh,
Jaholatdan qo'rqishi kerak.
Har bir bola, har bir yosh,
Navoiyni o'qishi kerak.*

Userbay BAYKABILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek
tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tamonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tamonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimizning 2022-yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shinchcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy

jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirot etish vazifalari belgilandi.

Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada?

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tamonlama ta'lum-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridaq talablar ta'lum tizimi uchun juda muhim bo'lib, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lum va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lum sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalg qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lumi baholash xalqaro tadqiqotlarda ishtirot etish O'zbekistonga nima beradi?

– tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakat ta'lum sifati va uning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda uning xalqaro reytingda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

– milliy ta'lum tizimini isloh qilish, ta'lum mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

– xalqaro tadqiqotlar ta'lum sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatlari o'tkazishga ijobji ta'sir ko'rsatadi;

– xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy sa'maraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

– O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirot etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarni o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lum sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

– milliy ta'lum sifatini baholash nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materialari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba-sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi, umumta'lum muassasalari rahbarlari, pedagoglar, o'quvchilar foydalanishlari maqsadida o'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar va o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlarni o'rganish muhimdir. Buning dalili sifatida ko'rish mumkinki, 2022-yilda ta'lum 7 tilda olib boriladigan maktablar uchun milliy reyting asosida 6-, 7- hamda 10-sinf darsliklari nashrdan chiqib, o'quvchilar shu darsliklar bo'yicha bilim olmoqda. Hozirgi vaqtida pedagoglar uchun "Pisa testlari"ni yechish ko'proq qiyinchilik tug'dirmoqda. Shu muammoni bar taraf etish uchun eng avvalo test tushunchasini chuqur tushunib olishimiz zarur.

Test nima? Test bu – baholanuvchi o'quvchi haqida dalillar asosida xulosalar chiqarishga yordam beruvchi

o'lchov vositasi. Bu faqat bir necha javob variantidan iborat savol emas, u turli shakllarda bo'lib, batafsil yozma javobni va uni asoslashni talab etuvchi ijodiy topshiriq ham bo'lishi mumkin. Testga (topshiriqqa) nisbatan maqsadni belgilab olish, test natijalaridan tegishli xulosa chiqarish testga qo'yiladigan talablardandir.

Testning spetsifikatsiyasi (o'ziga xos xususiyati) nima? Spetsifikatsiya bu – ishning mazmunini, tuzilishi aniqlab beruvchi hujjat. Test spetsifikatsiyasi testning asosiy mazmunini umumiyl holatda o'ziga mujassam-lashtiradi. Shu bilan birgalikda shakl haqida ham ma'lumot beradi. Spetsifikatsiya asosan maqsad, vazifalar, test rejasi va tuzilishini o'z ichiga oladi. Shuningdek, spetsifikatsiya testni o'tkazish uchun ko'rsatmalarni, ularni o'tkazish shartlarini, natijalarni qayta ishlashni va ularni (natijalarni) talqin qilishni ham o'z ichiga oladi. O'quv rejasi va baholashga mas'ullar uchun testlar spetsifikatsiyasi quyidagi savollarga javob beradi: 1) Nimani o'qitamiz? 2) Qanday o'qitamiz? 3) Qanday o'lchov vositalaridan foydalananiz? 4) Qanday baholaymiz? Mana shuning uchun ham testlarning spetsifikatsiyasini bilish lozim.

Testlar spetsifikatsiyasi qanday ko'rinishga ega?

1. Domenni aniqlash (biz nimani o'lchamoqchimiz?). Agar bizga savolni ko'rsatib, savol yaxshimi yoki yomonmi deb so'rashsa, javob bera olmaymiz. Chunki biz nima o'chanayotganini bilmaymiz. 2. O'quvchi haqida xulosa qilish (biz o'quvchi haqida nima demoqchimiz yoki nimani o'lchamoqchimiz?). Xulosa tekshirilayotgan soha (matematika, o'qish va tabiiy fanlar) talablaridan kelib chiqib qilinadi.

Matematika bo'yicha talablar. O'quvchilar: 1) amallar (algoritmlar)ni tushunishi va bajara olishi; 2) muammolarni hal qila olishi; 3) matematik tilda muloqot qila olishi; 4) matematik modellashtirishni bilishi kerak.

Til bo'yicha talablar. 1) O'qish: o'quvchilar qiyinlashtirilgan adabiy matnlarni va ma'lumotlardan iborat matnlarni tushunish uchun diqqat bilan tahvilay yondashgan holda o'qiy olishlari kerak. 2) Yozish: o'quvchilar turli maqsadlar va turli auditoriya uchun samarali yoza olishlari kerak. 3) Tinglash va gapirish: o'quvchi o'zining tinglash va gapirish qobiliyatidan turli muammolarni hal etish va turli auditoriya uchun foydalana olishi kerak. 4) Tadqiqot: o'quvchi matndagi holatlar, harakatlar va voqealarni tahlil qila olishi, o'zi keltirgan dalillarni asoslay olishi, matnlardagi umumiyl g'oyani topa olishi kerak.

Tabiiy fanlar bo'yicha talablar. O'quvchilar: 1) mu-loqotga kirisha olishi va muammoni aniqlay olishi; 2) modellarni ishlab chiqishi, yaratishi va ishlata olishi; 3) tadqiqotlarni rejalashtira olishi va ularni o'tkazishi; 4) berilgan ma'lumotlarni tahlil va talqin qila olishi; 4) matematik tafakkurni ishlata olishi; 5) konstruksiya-lay olishi va modellashtira olishi; 6) dalillardagi faktlar dan foydalana olishi; 7) ma'lumotlarni qabul qilib, baholay olishi kerak.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya masalasi, jumladan, ona tili va adabiyot ta'limi murakkab va serqirra jarayon, uni davr talablariga javob beradigan darajada amalga oshirish uchun qator ilmiy-nazariy muammolarni hal qilish kerakki, bu esa avvalo quyidagi omillarga bog'liq. Bunda davlat siyosati (davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoit), o'quv qurollari (darslik, qo'llanma sifati, saviyasi), ularning mazmunini o'quvchi ongiga singdirishda qo'llanadigan usul va vositalar (texnik, ashvoyiy va hokazo), ta'limni amalga oshiradigan shaxs (o'qituvchi)ning kasbiy mahorati, shaxsiyati (jonkuyarligi, vijdoni va hokazo), o'quvchining qobiliyati (zehni, xotirasi), uquvi, tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Davlat ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifasi innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish, shaxsni rivojlantirish va uni hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda.

Globallashuv – insoniyatning ong-u shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan umumiylar jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzuksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir.

Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uning rivojlangan davlatlar qatori dan mustahkam o'rin olishi, birinchi navbatda, davlat-

ning intellektual salohiyati, yosh avlod ta'lim-tarbiysi va zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi F-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'naliishing to'rtinch – "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bo'limida: jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishida maktab o'qituvchilarining zimmasiga keng ko'lamli vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarni bajarish o'qituvchidan yangicha faoliyat – innovatsion faoliyatni talab etadi. Bugungi rivojlangan texnologiyalar asri va shiddatli zamon taraqqiyoti bevosita ta'lim sohasi va, shu bilan bir qatorda, ta'limning asosiy ish quroli bo'lgan darsliklarning ham zamon talabi darajasida bo'lishini taqozo qiladi. Darslarni turli slaydlar, audioeshittirishlar vositasida tashkil etish, albatta, dars jarayonida vaqtдан unumli foydalanish, ta'lim sifat-saviyasi, samaradorligini oshirish, bolani darsga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega. Zero, XXI asrda o'qitish XXI asr ko'nikmalaridan ke lib chiqadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Abduqodirov A. Umumiylar o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalaridan foydalinish muammolari // Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4.
4. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005.
5. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari // Молодой учёный, 2016. № 9.
6. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.

Dars – muqaddas

Adiba BEKCHANNOVA,
Xorazm viloyati Urganch shahar
18-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

SO'Z MULKINING SULTONI

(8-sinf, o'zbek tili)

Darsning mavzusi: Matn va lug'at bilan ishlashni o'rGANISH.

a) ta'limiY maqsad: o'quvchilarga matn va u bilan ishlash usullarini o'rgatish;

b) tarbiyaviY maqsad: matnni tahlil qilish orqali o'quvchilarni halol, to'g'riso'z bo'lishga undash, insoniy fazilatlarni ardoqlashga o'rgatish, ajdodlarimizni ulug'lashga chorlash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalar ni shakllantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi.

Darsda foydalilaniladigan usullar: guruhlarda ishlash, savol-javob, xotira mashqi, "Sinkveyn", "Ifodal o'qiyman".